



FUQAROLARNING HUQUQLARI, ERKINLIKLARI VA QONUNYI MANFAATLARINI HIMOYA QILISHDA DAVLAT XIZMATLARI KO'RSATISHNING MILLIY TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI.

Matkarimova Muxayyo Maksudbekovna

Toshkent davlat yuridik universiteti
magistranti.

matkarimovamuxayyo@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8059320>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-June 2023 yil
Ma'qullandi: 18-June 2023 yil
Nashr qilindi: 20-June 2023 yil

KEY WORDS

*normativ huquqiy hujjat, qonun
ijodkorligi, Mobile-ID, norma
ijodkorligi, davlat xizmatlari,
yuridik yordam, yagona darcha,
tadbirkorlik subyektlari.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada Davlat xizmatlarini ko'rsatish va intellektual mulkning huquqiy himoyasi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishda tizim imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, ushbu sohalarda muvofiqlashgan faoliyatni ta'minlash hamda mavjud ma'muriy tuzilmalarning yaxlit vertikal boshqaruvini shakllantirish zarurati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda idoralararo elektron hamkorlikni kengaytirish va mavjud ma'lumotlar bazasini raqamlashtirish bo'yicha taklif va mulohazalar keltirib o'tilgan.

So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlash, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan qonunchilik hujjatlarining mazmun va mohiyatini tushuntirish, joylarda aholini tashvishga soluvchi huquqiy muammolarni hal etish, davlat xizmatlarining sifatini oshirish, o'z faoliyati yuzasidan jamoatchilikka tizimli ravishda ma'lumotlar taqdim etish masalalarida adliya organlari va muassasalarining roli va mas'uliyati sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Shu bilan birga, "Yangi O'zbekiston — xalqchil va insonparvar davlat" g'oyasini ro'yobga chiqarish adliya organlari tizimida ma'muriy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni taqozo qilmoqda.

Mamlakatimizda adolat va huquq ustuvorligini mustahkamlash, aholiga professional xizmat qiladigan ixcham va samarali boshqaruvni yaratish, deklarativ xususiyatga ega vazifalarni bekor qilish, funksiyalarni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini aniq belgilash va takrorlanishlarning oldini olish orqali budjet mablag'larini tejash va ulardan oqilona foydalanish, shu jumladan aholining huquqiy muammolarini hal etishda adliya organlarining roli va mas'uliyatini yanada kuchaytirish maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022-2023-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari dasturini ishlab chiqishni muvofiqlashtiruvchi respublika komissiyasining Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy boshqarmalari hamda Intellektual mulk agentligi va

uning hududiy markazlarini vazifa, funktsiya va vakolatlarini Adliya vazirligiga o'tkazgan holda qo'shib olindi. Ma'lumki, shaxsning huquqiy madaniyati - jamiyat huquqiy madaniyatining zaruriy shart-sharoiti va ilk bunyodkori, uning maqsadi va tarkibiy qismidir. Shu bilan birga u shaxsning o'zining qonuniy faoliyat darajasida aks etuvchi huquqiy rivojlanishining jihati hamdir. U jamiyat huquqiy holati muayyan darajasiga bog'liq, holda uning muhim negizini tashkil etadi va uning asosida yotadi. Shaxsning huquqiy madaniyati amaliyotda uning ijobiy huquqiy ongini taqozo qiladi. U huquq, sohasida jamiyatning progressiv yutuqlariga mos keluvchi ijodiy faoliyatni tashkil etib, natijada shaxsning doimiy huquqiy boyishi ro'y beradi.

Huquqiy madaniyatga erishishning asosiy yo'nalishlaridan biri – huquqiy tarbiyadir. Yuridik adabiyotlarda huquqiy tarbiya tushunchasiga huquqiy madaniyat, huquqiy tajriba, huquqiy g'oya hamda nizolarni hal etish mexanizmini jamiyatdagi bir avloddan ikkinchi avlodga o'tkazish bilan bog'liq maqsadga yo'naltirilgan faoliyat deb ta'rif berilgan. Huquqiy tarbiyadan maqsad insonning huquqiy ongini va umuman jamiyatning huquqiy madaniyatini rivojlantirishdan iborat.

Hozirgi vaqtda nafaqat tadbirkorlarga, balki aholiga ham eng zarur va talab yuqori bo'lgan davlat xizmatlarini "yagona darcha" tamoyili bo'yicha ko'rsatish maqsadida respublikaning har bir tuman va shaharlarini qamrab olgan Xalq qabulxonalari huzuridagi davlat xizmatlari markazlarining yagona tarmog'i yaratildi. Respublikada davlat xizmatlarini ko'rsatishda byurokratizm, sansalorlik va boshqa ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish, eskirgan va zamon talablariga mos kelmaydigan tartib-taomillarni tubdan qisqartirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan 73 turdagi ma'lumotnoma va hujjatlar taqdim etilishi talabi bekor qilinib, davlat organlari tomonidan ushbu ma'lumotlarni "Elektron hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasidan foydalangan holda olish tizimi joriy etildi.

Shu bilan birga, aholiga davlat xizmatlarini qulay va oson shakllarda ko'rsatish ko'lamini oshirish va fuqarolarning idorama-idora sarson bo'lib yurishining oldini olish, davlat organlari axborot tizimida mavjud ma'lumotlarni ishonchli himoya qilish bo'yicha ishlarni izchil davom ettirilmoqda. Ammo amalga oshirilgan chora-tadbirlar va erishilgan yutuqlarga qaramasdan davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida foydalanilmagan imkoniyatlar va hal etilmagan muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan:

birinchidan, bir qator tashkilotlarda bazaviy axborot tizimlarini joriy etish masalalari va ularning idoralararo integratsiya qilinishi past darajada ekanligi davlat xizmatlarini qulay va o'z vaqtida ko'rsatishni ta'minlamayapti. Ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar, ayniqsa, Mudofaa vazirligi, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Qurilish vazirligi, "O'ztransgaz" AJ va barcha darajadagi mahalliy davlat hokimiyati organlariga taalluqli sanaladi;

ikkinchidan, davlat organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, ko'chmas mulk ob'ektlari va boshqa hujjatlar reyestrlari alohida qog'oz ko'rinishida yuritilishi, elektron arxivlarning mavjud emasligi elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishda qiyinchiliklarga olib kelmoqda. Bu kabi salbiy amaliyot, ayniqsa, Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi (keyingi o'rinlarda — Davergeodezskadastr) va "O'zarxiv" agentligiga tegishli hisoblanadi;

uchinchidan, ko'pchilik davlat xizmatlari markazlari hanuzgacha yuqori tezlikdagi

Internet tarmog'iga ulanmaganligi idoralararo elektron hamkorlikning zarur darajada yo'lga qo'yilmasligiga sabab bo'lmoqda. Ushbu jiddiy muammolarni bartaraf etish uchun Agentlik, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va "O'zbektelekom" AJ rahbarlari ta'sirchan choralar ko'rmayapti;

to'rtinchidan, davlat xizmatini ko'rsatuvchi vakolatli organlar va davlat xizmatlari markazlari lozim darajada zamonaviy kompyuter texnikasi va texnik vositalar bilan jihozlanmaganligi davlat xizmatlarini ko'rsatishning ilg'or va innovatsion metodlarini joriy qilishga to'siq bo'lmoqda;

beshinchidan, davlat xizmatlari markazlari zarur bino va xonalar bilan ta'minlanmaganligi talab yuqori bo'lgan ko'plab xizmatlarni ko'rsatish uchun tashrif buyuruvchilarni to'liq va bir vaqtda qamrab olishga imkon bermaydi;

oltinchidan, davlat xizmatlarini olish jarayonida ortiqcha talablar va to'siqlarning mavjudligi shaffoflikning yo'qolishiga, huquqni turlicha qo'llash amaliyotiga va oqibatda suiiste'molchiliklar tez-tez sodir etilishiga va boshqa qoidabuzarliklarga olib kelmoqda;

yettinchidan, axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning bilim darajasi va malakasi pastligicha qolmoqda, ularga hujjatlarni elektron shaklda taqdim etish va olishni o'rgatish bo'yicha tashkillashtirilgan tizim mavjud emas.

Jismoniy va yuridik shaxslar uchun davlat xizmatlari ko'rsatish ko'lamini oshirish, aholining masofadan turib elektron davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, bu borada barcha uchun teng sharoitlarni yaratish orqali inklyuziv muhitni shakllantirish maqsadida 2022-yil 1-avgustdan boshlab davlat xizmatlaridan foydalanish uchun shaxsni identifikatsiyalashning mavjud tizim va vositalariga qo'shimcha ravishda jismoniy shaxsni identifikatsiyalashning Mobil-ID tizimi joriy etildi.

Quyidagilar aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlari ko'rsatish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda Adliya vazirligining kelgusi besh yillikdagi ustuvor faoliyat yo'nalishlari etib belgilandi:

"Davlat xizmatlarini ko'rsatishda fuqaro e'tibor markazida" (Citizen — centric service) tamoyili asosida davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini modernizatsiya qilish;

Markazlar faoliyatida qo'llanilayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlarini kengaytirish, aholining elektron davlat xizmatlaridan foydalanish darajasini keskin oshirish hamda ish yuritishni "qog'ozsiz" tamoyil asosida olib borish;

biznes jarayonlarini modernizatsiyalash usullari (Business Process Reengineering) asosida har bir davlat xizmatini maqbullashtirish, shu jumladan muddatlar va talab etiladigan hujjatlar sonini maksimal darajada qisqartirish orqali "bir darcha" tamoyilini amaliyotga to'liq tatbiq etish;

ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik rivojlanishning joriy holati, aholi va tadbirkorlik subyektlarining ehtiyoji va talablaridan kelib chiqib davlat xizmatlarining yangi turlarini yo'lga qo'yish hamda o'z ahamiyatini yo'qotgan davlat xizmatlarini birlashtirish yoki bekor qilish;

jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatishda inklyuziv muhitni yaratish;

davlat organlarining tashabbusi asosida proaktiv davlat xizmatlari hamda bitta so'rov bo'yicha o'zaro bog'liq kompozit davlat xizmatlari ko'rsatish amaliyotini kengaytirish;

o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, aholi va

tadbirkorlik subyektlarining davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish ko'nikmalarini oshirib borish.

So'nggi yillarda davlat xizmatlari ko'rsatish tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida aholi hamda tadbirkorlik subyektlariga qulay va tezkor davlat xizmatlarini taqdim etishning zamonaviy infratuzilmasi barpo etildi. Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimining sifat jihatidan yangi darajaga o'tishini ta'minlash maqsadida 2017-yilda har bir tuman (shahar)da davlat xizmatlari markazlari tashkil etildi.

2022-yil 21-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish, byurokratik t'siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni bilan Agentlik faoliyqati Davlat xizmatlari markazi sifatida o'zgartirildi.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini isloh qilish natijasida mavjud 750 dan ortiq davlat xizmatlaridan 172 tasi Markazlar, 308 tasi esa O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali hamda "Litsenziya" axborot tizimi orqali interaktiv shaklda ko'rsatilishi yo'lga qo'yildi. Bugungi kunga qadar 207 ta Markazlar hamda ularning 141 ta filiallari orqali jismoniy va yuridik shaxslarga jami 32 mln.dan ortiq xizmatlar ko'rsatildi. Davlat xizmatlarini ko'rsatishning umumiy muddati deyarli 787 kundan 471 kungacha qisqartirildi. Tadbirkorlik sohasida 132 ta litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillari bekor qilindi. Davlat xizmatlarini ko'rsatishning yangi shakllari joriy qilinishi natijasida 17 ta davlat xizmatini kompozit tarzda ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Markazlar orqali davlat xizmatlarini ko'rsatishni joriy etish natijasida 200 dan ortiq tartib-taomillar qayta ko'rib chiqilib, soddalashtirildi. Shu bilan birga, davlat xizmatlari ko'rsatish tizimining yanada rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi tizimli muammolar mavjud: mavjud davlat xizmatlarining katta qismi hamon elektron shaklda ko'rsatilmasdan an'anaviy shaklda aholiga taqdim etib kelinmoqda; davlat xizmatlarini ko'rsatishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar davlat xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy shakllari va ma'muriy tartib-taomillar prinsiplariga muvofiq emasligi hamda ichki idoraviy hujjatlar bilan davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibotlarini belgilash hanuzgacha saqlanib qolinmoqda; davlat xizmatlarini ko'rsatuvchi vakolatli organlar tomonidan faqat rasmiy qoidalar va talablarga rioya etishni vaj qilgan holda, boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan ustuvor huquq va imtiyozlarni qo'llash rad etilishi holatlari tufayli ariza beruvchilarning ovoragarchiliklari saqlanib qolmoqda; tartib-taomillari o'zaro o'xshash bo'lgan davlat xizmatlarini ko'rsatish asoslarini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish ishlari lozim darajada amaliyotga tatbiq etilmaganligi qonunchilik hujjatlarining soni sun'iy oshib ketishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, davlat xizmatlari yagona reyestrda takrorlanuvchi, bir xizmatning tarkibiy qismi bo'lgan bir nechta xizmatlar, o'z ahamiyatini yo'qotgan davlat xizmatlari saqlanib qolmoqda. Vaholangki, vakolatli idoralar tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatishda to'lovlar ularning ushbu xizmatni ko'rsatish uchun sarf qiladigan xarajatlaridan ortiqcha miqdorlarda undirilmoqda. Natijada ayrim davlat xizmatlarini ko'rsatuvchi vakolatli organlar tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatish tartiblari muntazam ravishda buzilishi sabablari bartaraf qilinmasdan qolmoqda. Vakolatli idoralar tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomillari buzilganda ularning qonunga xilof xatti-harakatlari va qarorlari ustidan sudgacha shikoyat qilishning mexanizmlari yo'lga qo'yilmaganligi sababli jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklash uzoq vaqtni talab qilmoqda. Shuningdek

hududlarda vakolatli idoralarning quyi bo'g'in tashkilotlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yetishmovchiligi yoki axborot tizimlari mavjud emasligi interaktiv davlat xizmatlarini ko'rsatishga to'laqonli imkon bermayapti. Tizimdagi muammolar qatorida shuni aytish mumkinki, respublika miqyosida Internet tezligining pastligi hamda optik-tolali tarmoq chekka hududlargacha yetib bormaganligi elektron davlat xizmatlarining ko'rsatkichlari past darajada saqlanib qolishiga olib kelmoqda, davlat xizmatlarini ko'rsatishda foydalaniladigan ma'lumotlarning katta qismi raqamlashtirilmaganligi "Elektron hukumat" tizimining barcha imkoniyatlaridan foydalanish darajasini cheklamoqda. Davlat xizmatlarining mobil ilovasi talab yuqori bo'lgan xizmatlarni to'liq qamrab olmasligi, bu ilovadan xizmatning oxiriga qadar foydalanish imkoniyati mavjud emasligi sababli elektron davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish ko'lami pastligicha qolmoqda. Tizimdagi muammolar qatorida davlat xizmatlaridan masofadan turib elektron foydalanish bo'yicha aholining bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan tizimli ishlar yo'lga qo'yilmaganligi 24 soat davomida Markazlarda ortiqcha navbatlar yuzaga kelishiga olib kelmoqda va talab yuqori bo'lgan yangi xizmatlarni ko'rsatishni yo'lga qo'yishga to'sqinlik qilmoqda. Davlat xizmatlarini ko'rsatuvchi xodimlarning malakasi talab darajasida emasligi yoki ularning ma'lum bir sohaga ixtisoslashib qolganligi natijasida xizmat ko'rsatish sifati pastligicha qolmoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan tizimdagi kamchiliklarni bartaraf etishda quyidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi:

davlat xizmatlarini ko'rsatishni tartibga soluvchi huquqiy asoslarni takomillashtirish va ma'muriy tartib-taomillarning samaradorligini oshirish;

sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda idoralararo elektron hamkorlikni kengaytirish va mavjud ma'lumotlar bazasini raqamlashtirish, konfidensial axborotlarning xavfsizligini ta'minlash;

davlat xizmatlarining yangi turlari va shakllarini joriy qilish, xizmatlardan foydalanish qulayligini oshirish va ko'rsatilayotgan xizmatlarni ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish;

davlat xizmatlarini ko'rsatishda vakolatli idoralarning mas'uliyatini yanada oshirish, aholiga o'z vaqtida xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish hamda xodimlarni ijtimoiy himoya qilish;

xalqaro reytinglarda O'zbekiston o'rnini yaxshilash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Xulosa qiladigan bo'lsak, davlat xizmatlarini ko'rsatishning milliy tizimini rivojlantirish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, aholining elektron davlat xizmatlaridan foydalanish darajasini oshirish, tizimga innovatsion yangiliklarni joriy etish maqsadida Strategiya natijalarga erishishni ko'zda tutadi. Jumladan, davlat xizmatlari respublikaning barcha hududlariga kirib borishi hamda aholining davlat xizmatlariga bo'lgan talabi samarali qondirilishiga erishish, davlat xizmatlarini ko'rsatishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish asosida huquqiy aniqlikni ta'minlash hamda an'anaviy tarzda ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish darajasini 80 foizga yetkazish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shuningdek, davlat xizmatlarini o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish asosida ko'rsatilishini rivojlantirish va zarur arxiv ma'lumotlarini raqamlashtirish orqali jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlarini

ko'rsatish sifati hamda tezligini oshirish ustuvor vazifalar qatorida sanaladi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sonini 400 taga, Markazlar orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sonini 300 taga yetkazish hamda elektron hukumatni rivojlantirish reytingida O'zbekiston o'rnini 20 pog'onaga yaxshilash mavjuda tizimning asosiy maqsadlari hisoblanadi. Ustuvor vazifalar sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDGs) reytingi va Jahon bankining Boshqaruv sifati indikatorida (Worldwide Governance Indicators) O'zbekiston o'rnini yaxshilashni ham aytishimiz mumkin. Shuningdek, davlat xizmatlarini ko'rsatishda ma'lumotlar ochiqqligini, davlat organlari hamda boshqa idoralar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va tizimda mavjud kamchiliklarga bosqichma-bosqich yechim izlash va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarining faqat "yagona darcha" tamoyili asosida ko'rsatilishiga erishish ustuvor vazifalar sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ахмедшаева М.А., Нажимов М.К. Ҳуқуқ нима? – Тошкент: ТДЮИ, 2003. – 35 б.
2. Давлат ва ҳуқуқ назарияси: дарслик / Х.Т.Одилқориевнинг умумий таҳрири остида. – Тошкент: Шарқ, 2009. – 529 б.
3. Ислотов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. – Тошкент: Адолат, 2007. – Б 578.
4. "Қонун ҳужжатлари мониторинги: назария ва амалиёт масалалари". Илмий-амалий семинар материаллари, Масъул муҳаррир: Ф.Ҳ.Отахонов, 2006 йил 24 март – Т.: 2006. – 377 б.
5. "Тадбиркорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилишда юридик хизматнинг роли". Илмий-амалий семинар материаллари / Масъул муҳаррир: Ф.Ҳ.Отахонов, 2006 йил 6 октябрь – Т.: 2006. – 93 б.
6. Deighton-Smith, R., A. Erbacci and C. Kauffmann. Promoting inclusive growth through better regulation: The role of regulatory impact assessment. OECD Regulatory Policy Working Papers, No. 3, OECD Publishing, Paris. <http://dx.doi.org/10.1787/5jm3tqwqp1vj-en>
7. Better regulation: High Level Group of Independent Stakeholders on Administrative Burdens. - http://ec.europa.eu/enterprise/policies/better-regulation/administrativeburdens/high-level-group/index_en.htm.
8. <http://www.minjust.uz>
9. <https://www.hse.ru/edu/courses/298720561>
10. <http://www.norma.uz>
11. <http://www.mos.gov.rs>